O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Suli uchun standart

(CODEX STAN 201:1995, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 25-fevraldagi 6/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart CODEX STAN 201:1995 “Standard for Oats” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar yuzaga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston Respublikasi hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

Suli uchun standart

Стандарт на овес

Standard for Oats

Amalga kiritish sanasi 25.03.2026-yil.

1 Qo‘llanish doirasi

Ushbu standart 2-bo‘limda berilgan ta’rifga muvofiq bo‘lgan va oziq-ovqat maqsadida qayta ishlash uchun mo‘ljallangan suli doniga tadbiq etiladi. Ushbu standart Avena nuda (yalang donli suli) ga tadbiq etilmaydi.

2 Tavsif

Suli Avena sativa va Avena byzantina doni sifatida belgilanadi.

3 Tarkib va sifat. Asosiy ko‘rsatkichlari

3.1 Umumiy sifat ko‘rsatkichlari

3.1.1 Suli xavfsiz bo‘lishi va oziq-ovqat maqsadida qayta ishlash uchun yaroqli bo‘lishi lozim.

3.1.2 Suli begona hid va ta’mlarga ega bo‘lmasligi; unda tirik hasharotlar va kanalar bo‘lmasligi kerak.

3.2 Maxsus sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari

3.2.1 Namlik — massaviy ulushi bo‘yicha 14,0 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Ba’zi hududlarga jo‘natishda iqlim, tashish davomiyligi va saqlash sharoitlarini hisobga olgan holda namlik bo‘yicha yanada past chegaraviy qiymatlar belgilanishi talab etilishi mumkin.

3.2.2 Qorakuya

Claviceps purpurea zamburug‘i sklerositlari — massaviy ulushi bo‘yicha 0,05 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

3.2.3 Zaharli yoki zararli urug‘lar

Ushbu standart talablariga muvofiq mahsulot inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorlarda quyidagi zaharli yoki zararli urug‘larni o‘z ichiga olmasligi lozim:

— krotalariya (Crotalaria spp.), oddiy bo‘g‘iq (Agrostemma githago L.), kanakunjut (Ricinus communis L.), oddiy durman (Datura spp.) hamda inson salomatligi uchun zararli deb keng e’tirof etilgan boshqa o‘simliklarning urug‘lari.

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

3.2.4 Begona aralashmalari

Organik kelib chiqishdagi aralashmalar (jumladan, o‘lik hasharotlar) — massaviy ulushi bo‘yicha 0,1 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

3.2.5 Boshqa organik aralashmalar — massaviy ulushi bo‘yicha 1,5 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak, ya’ni iste’mol qilinadigan donlardan tashqari organik komponentlar (begona urug‘lar, poyalar va boshqalar).

3.2.6 Noorganik aralashmalar — massaviy ulushi bo‘yicha 0,5 % dan ko‘p bo‘lmasligi kerak, ya’ni noorganik komponentlar (mayda toshlar, chang va boshqalar).

4 Ifloslantiruvchi moddalar

4.1 Og‘ir metallar

Suli inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorlarda og‘ir metallarni o‘z ichiga olmasligi lozim.

4.2 Pestitsidlar qoldiq miqdori

Suli ushbu mahsulot uchun “Kodeks Alimentarius” Komissiyasi tomonidan belgilangan pestitsidlar qoldiq miqdorining maksimal darajalariga muvofiq bo‘lishi kerak.

5 Sanitariya -gigiyena talablari

5.1 Ushbu standart qamrab olgan mahsulotni ishlab chiqarish va keyingi muomalasi “Oziq-ovqat gigiyenasining umumiy tamoyillari” (CXC 1-1969) ning tegishli bo‘limlari hamda “Kodeks Alimentarius” Komissiyasi tomonidan ushbu mahsulot uchun tavsiya etilgan boshqa tegishli me’yor va qoidalarga muvofiq amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

5.2 Mahsulot yaxshi ishlab chiqarish amaliyoti qoidalariga rioya qilingan holda imkon qadar begona aralashmalardan holi bo‘lishi lozim.

5.3 Tegishli namuna olish va tahlil usullari qo‘llanilgan holda tozalash va saralashdan so‘ng, keyingi qayta ishlashdan oldin mahsulot:

— inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan miqdorda mikroorganizmlarni o‘z ichiga olmasligi kerak;

— inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan parazitlarni o‘z ichiga olmasligi kerak; va

— mikroorganizmlar, jumladan zamburug‘lar faoliyati natijasida hosil bo‘lgan, inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan moddalarni o‘z ichiga olmasligi kerak.

6. Qadoqlash

6.1 Suli mahsuloti uning sanitariya-gigiyena, ozuqaviy, texnologik va organoleptik xususiyatlarini saqlab qolishni ta’minlaydigan idishga qadoqlanadi.

6.2 Idish, shu jumladan qadoqlash materiallari, xavfsiz va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan tegishli materiallardan tayyorlangan bo‘lishi kerak. Ular mahsulotga zaharli moddalarni o‘tkazmasligi, shuningdek, unga begona hid yoki ta’m bermasligi lozim.

6.3 Mahsulot qoplarga qadoqlanganda, bunday qoplar toza, mustahkam, mahkam tikilgan yoki payvandlab yopilgan bo‘lishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI TARJIMASI | O‘zMSt 201:2026 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI

7. Tamg‘alash

(CXS 1-1985) — “Qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini tamg‘alash bo‘yicha umumiy standart” qoidalariga qo‘shimcha ravishda quyidagi maxsus talablar qo‘llaniladi:

7.1 Mahsulot nomi

Yorliqda mahsulot nomi quyidagicha ko‘rsatiladi: “suli”.

7.2 Transport idishini tamg‘alash

Axborot yozuvlari idishning o‘zida yoki unga ilova qilinadigan hujjatlarda ko‘rsatiladi; bunda idishda mahsulot nomi, to‘p raqami, shuningdek ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlovchining nomi va manzili majburiy tartibda ko‘rsatiladi.

To‘p raqami, shuningdek ishlab chiqaruvchi yoki qadoqlovchining nomi va manzili identifikatsiya belgisi bilan almashtirilishi mumkin, agar bunday belgi ilova hujjatlar bilan mosligini aniq belgilash imkonini bersa.

8. Tahlil usullari va namuna olish

Tahlil usullari va namuna olish tartibi bo‘yicha tegishli hujjatlar uchun Codex Alimentarius Commissiyasi materiallariga qaralsin.

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Ilova

Chegaraviy qiymatlar va/yoki tahlil usullarining bir nechta turlari ko‘rsatilgan hollarda, foydalanuvchilarga tegishli qiymat va tahlil usulini aniq ko‘rsatish qat’iy tavsiya etiladi.

Ko‘rsatkich / tavsif	Chegaraviy qiymat	Tahlil usuli
1. Minimal tabiiy massa: yuz litr hajmdagi sulining massasi, gektolitrga kilogrammda ifodalangan	kamida 46 kg/hl	Tabiiy massa ISO 7971:1986 standartiga muvofiq yoki dastlabki namunaning bir qismi bo‘yicha gektolitrga kilogrammda ifodalangan ekvivalent natijalarni beruvchi boshqa uskunalar yordamida aniqlanadi
2. Qobiqsiz singan don (qobig‘i bo‘lmagan har qanday o‘lchamdagi don bo‘laklari)	massaviy ulushi bo‘yicha 5 % dan ko‘p emas	keyinroq belgilanadi
3. Sulidan tashqari iste’mol qilinadigan donlar (butun yoki yaqqol singan)	massaviy ulushi bo‘yicha 3 % dan ko‘p emas	keyinroq belgilanadi
4. Shikastlangan donlar (namlik, ob-havo sharoitlari, kasalliklar, hasharotlar, mog‘or, issiqlik, fermentatsiya, unib chiqish va boshqa sabablar tufayli ko‘rinadigan shikastlanish izlari bo‘lgan donlar, shu jumladan)	massaviy ulushi bo‘yicha 3 % dan ko‘p emas	keyinroq belgilanadi
5. Suli yovvoyi turlari: Avena fatua yoki Avena sterilis	massaviy ulushi bo‘yicha 0,2 % dan ko‘p emas	keyinroq belgilanadi
6. Hasharotlar tomonidan shikastlangan donlar: hasharotlar tomonidan yaqqol iste’mol qilinadigan donlar	massaviy ulushi bo‘yicha 0,5 % dan ko‘p emas	keyinroq belgilanadi
7. Nuqsonli donlar, jumladan iqlim omillari ta’sirida qobig‘i qoraygan don-lar	keyinroq belgilanadi	keyinroq belgilanadi

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Bibliografik ma’lumotlar

SMT: 67.060

STANDARTLAR INSTITUTI #N64AZSRJJ4 - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI